

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR

*Mamarasulova Sojidaxon**Andijon davlat pedagogika instituti talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, bolalarda eshitishning roli va uning buzilishi oqibatida kelib chiqadigan psixik holatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Shaxsiy eshitish apparatlari, operativ, surdopedagogika, agenoid vegetatsiya.

KIRISH

Maxsus pedagogika tarmog'i – surdopedagogika hisoblanadi. Ushbu fan muloqot va bilish subyekti sifatida eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxsning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy sifatlarini o'rganadi.

Korreksion pedagoglarning (T.A.Vlasova, R.M.Boskis, D.V.Neyman) bergan ma'lumotlariga ko'ra, eshitishda nuqsonlari bor bolalarning rivojlanish darajasi shu nuqsonning bola hayotining qaysi davrida paydo bo'lganligiga va og'ir yengilligiga bog'liq ekanligini aytib o'tishgan.

Eshitish kamchiligiga ega bo'lgan bolalar alohida yordamga muhtoj bolalar toifasiga kiradi, chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib, kamol topib borishiga, dastur materiallarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda turli a'zo va sistemalarda qo'shimcha birlamchi buzilishlar bo'lishi mumkin. Eshitishdagi kelib chiqishining birlamchi sababini aniqlash ba'zan qiyin kechadi. Birdaniga eshitishning buzilishiga olib keladigan bir necha sababning birikishi kuzatilishi mumkin. Bugungi kunga kelib esa bir sabab turli shakldagi karlik va zaif eshituvchilikni keltirib chiqarmoqda. Turli manbalarda aytilishicha, sayyoramiz aholisining 4 % dan 6 % igacha vakili eshitishdagi u yoki bu nuqsonlardan azob chekishmoqda. Biroq eshitishda kamchiligi bo'lgan kishilarning aksariyat katta qismi zaif eshituvchi guruhiga mansub. Kar bolalarning 25 – 30 % ida eshitish kamchiliklari tug'ma bo'ldi.

Eshitishning buzilishiga olib keladigan sabablarga tug'ilish paytidagi jarohatlar, dunyoga kelayotgan bolaning boshiga qisqichlar qo'yilishi, o'rta quloqqa operativ teginishlar (operatsiyadan keyingi asoratlar), jarohat chog'ida eshitish suyakchalari zanjirining uzilishi, adenoid vegetatsiyalar va boshqalar misol bo'la olishi mumkin. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari va imkoniyatlari, ularga ilk davrdan boshlab korreksion - pedagogik yordam ko'rsatish zaruratidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Eshitishning pasayishi bolaning umumiy va psixik shakllanishiga, eng asosiysi nutqining

rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitmaydigan va zaif eshituvchi bola maxsus o'rgatib borilmasa, u gapira olmaydi, atrofdagilar bilan muloqotda esa belgilangan miqdordagi imo – ishoralardan foydalanadi. Bolalar kundalik hayotida kattalarga taqlid qilgan holda oddiy amaliy faoliyat turlarini bajara oladilar, narsalarning funksional vazifalarini o'zlashtiradilar va ulardan to'g'ri foydalanadi, o'z – o'ziga xizmat ko'rsatish malakasini egallab oladilar. Bunday bolalarga maxsus ta'lim berish shart – sharoitlari yaratilmagan holda, ular boshqa shaxslar nutqini idrok eta olmasligi oqibatida sensor va aqliy rivojlanishi so'zlashuv nutqning ta'sirisiz kechadi. Shunda qilib, eshitish qobiliyatining pasayishi va nutqiy rivojlanishning buzilishi natijasida bolaning rivojlanishi to'xtamasa-da, cheklanib qoladi.

Tibbiyotda hozirgi kunda bolalarning eshitish holatini baholashda eshitish buzilishining xalqaro tasnifidan foydalaniladi.

Zaif eshituvchilikning 1-darajasi-eshitishning pasayishi 40 dB dan ortmaydi. Zaif eshituvchilikning 2-darajasi-eshitishning pasayishi 40 dB dan 55 dB gacha. Zaif eshituvchilikning 3-darajasi-eshitishning pasayishi 55 dB dan 70 dB gacha. Zaif eshituvchilikning 4-darajasi-eshitishning pasayishi 70 dB dan 90 dB gacha. Eshitishning 90 dB dan ortiq pasayishi **karlik** deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/3483>.
2. LOGOPEDIYA (M. AYUPOVA)
3. <https://fayllar.org/eshitishda-nuqsoni-bo'lgan-bolalar.html>
4. Logoped (QAHRAMONOVA.M)
5. <http://uzsd.uz/eshitish-imkonidan-cheklangan-bola-ta'lim-olish-imkonidan-cheklangan-emas/>